



OSIYO XALQARO
UNIVERSITETI



OSIYO XALQARO UNIVERSITETI AXBOROTNOMASI

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal

2025, №2

EDITION 2

<https://scientificjournal.uz/>

MUNDARIJA

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI

Haqqulova Dilshoda Abduvasiyevna. <i>Adabiyotshunos olim Abdurahmon Go‘zalning Navoiyshunoslikdagi izlanishlari</i>	11
Saidova Rayhon Bekmurodovna. <i>She‘r va shoirlik xususida mulohazalar Munis va Maxmur ijodida</i>	19

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

Davronova Shaxlo Farmonovna. <i>Pedagog-kadrlarida raqamli kompetentsiyalarni shakllantirish mexanizmlari</i>	25
Maxmudova Nigora Hikmatovna. <i>Badiiy matnlarni o‘zlashtirishda kognitiv ko‘nikmalarni shakllantirish</i>	31
Atoyeva Mehriniso Farhodovna. <i>Kredit-modul tizimida ta‘lim samaradorligini oshirishda integratsion yondashuvlarning o‘rni</i>	38
Ibragimov Manuchexr Baxtiyorovich., Baqoyev Umid Ubayd o‘g‘li. <i>Musobaqalarda futbol atamalarini ishlatilishi</i>	47
Qurbonova Zilola Ismoil qizi. <i>Maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida 5-7 yoshli bolalarni maktab ta‘limiga tayyorlash bo‘yicha bajarilgan ilmiy-tadqiqot ishlarining tahlili</i>	53
Sayfullayeva Nozima Baxodirovna. <i>Boshlang‘ich sinf matematika darslarida mustaqil ishlarni tashkil etish</i>	61
Xodjiyeva Dilfuza Rustamovna. <i>Globalashuv sharoitida bolalar musiqa va san‘at maktablari o‘quvchilarining musiqiy-badiiy didini shakllantirishning dolzarbligi</i>	68
Musayeva Amina Karamatovna. <i>Talabalarda kommunikativ kompetentlikni iyojlantirishda fanlar integratsiyasi</i>	79
Sidiqova Yulduz Sobirovna. <i>Neyropedagogika yordamida tanqidiy fikrlash va tahlil qobiliyatini rivojlantirish</i>	88
Boltayeva Shahribonu Ahmad qizi. <i>Bo‘lajak kimyo o‘qituvchilarning metodik tayyorgarligini pedagogik texnologiyalar asosida takomillashtirish</i>	96
Файзуллаева Садокат Фуркатовна. <i>Международный и национальный опыт обучения химии: сравнительный анализ</i>	102
Тўланов Мамасидиқ. <i>Ёшлар онгида экологик муаммоларни олдини олишга қаратилган баъзи масалалар</i>	121
Идиева Нигинабону Эркин кизи. <i>Формирование навыков чтения у младших школьников: современные подходы и методики</i>	127
Hamroyeva Sanobar Hasan qizi. <i>Methodological approaches based on the development of medical and technical knowledge of students in practical english language classes</i>	141
Сколота Ксения Александровна. <i>Технологии игровой педагогики</i>	148

- Kurbaniyazov O'ktam.** *Shaxs tarbiyasida qur'on va hadisning pedagogik ahamiati* 157
- Abdumutalipov Nodirbek Abdulazizovich.** *Bo'lajak o'qituvchilarning akmeologik kasbiy ko'nikmalarini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari* 165

19.00.00 – PSIXOLOGIYA FANLARI

- Turayeva Dilafruz Rustamboyevna.** *Avtoritar uslubning o'quvchilar o'quv motivasiyasiga ta'siri xususiyatlari* 172
- Ostonov Jasur Shopirjonovich.** *Ta'limda metakognitiv ko'nikmalarni shakllantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari* 194
- Maxmudova Zulfiya Mexmonovna.** *Qo'riqlash xizmati xodimlarining kasbiy kompetentligining o'ziga xosligi* 203
- Saidova Ozoda Tohirovna.** *Bo'lajak o'qituvchilarni pedagogik imidjiga ta'sir etuvchi psixologik omillar* 213
- Avezov Olmos Ravshanovich., Ashurova Zarina Rajab qizi.** *Oilaviy munosabatlarning psixosomatik kasalliklarga ta'siri* 220
- Sattorov Abbas Salimovich.** *Boshlang'ich sinf o'qituvchilarida nutq madaniyatini shakllantirishning zamonaviy tendensiyalari* 228
- Tairov Shavkat Muxamadovich.** *Turli jinoyatlarini sodir etuvchi shaxslar toifasi psixologiyasi* 235
- Qo'ldoshev Shahzod Navro'zovich.** *O'g'il bolalarni oilaviy hayotga tayyorlashning ijtimoiy psixologik muammolari* 244
- Baxronova Shoira Yadgorovna.** *Ayollarda ijtimoiy faolligini oshirishning psixologik xususiyatlari* 252
- Tog'ayev Lazizbek Bahriddinovich.** *Talabalarining ijodiy faoliyatini rivojlantirish texnologiyasi* 258
- Ochildiev Umid Bobomurodovich.** *O'quvchilarda tolerantlik madaniyatini shakllantirishning pedagogik asoslari* 265
- Rasulqulova Sitara Shodmonjonovna.** *Maktab o'quvchilari orasida yuzaga kelayotgan bilingvizm muammolari* 274
- Jakhongir Tokhirovich Nozimov.** *Psychological aspects of the formation of a sense of confidence of students in distance education* 280

QO'RIQLASH XIZMATI XODIMLARINING KASBIY KOMPETENTLIGINING O'ZIGA XOSLIGI



Maxmudova Zulfiya Mexmonovna

Buxoro davlat universiteti dotsenti, Buxoro shahri

Annotatsiya:

KIRISH: Ushbu maqolada qo'riqlash xizmati xodimlari ijtimoiy-psixologik va kommunikativ kompetentligi omillarining namoyon etilishi va rivojlanishini tadqiq etish hamda uning o'ziga xos ijtimoiy-psixologik omillarini takomillashtirish haqida fikr yuritilib, xodim ijtimoiy-psixologik kompetentligi va kommunikativ kompetentligini rivojlantiruvchi ijtimoiy-psixologik omillar, komponentlarini aniqlash mexanizmlari ochib berilgan.

MAQSAD: Qo'riqlash xizmati tizimida xizmat qilayotgan barsha xodimlar va harbiy xizmatchilarni axloqiy-ruhiy qo'llab-quvvatlashning mutlaqo yangi vazifalari, shuningdek, xodimlarning umumiy dunyoqarashi, ma'naviy va intellektual salohiyatini yuksaltirish, ularda vatanparvarlik, g'urur, iftixor, kasbiga sadoqat va yuqori mas'uliyat xislarini oshirish yuzasidan tadqiqot natijalari asosida tavsiya ishlab chiqishdan iborat.

MATERIALLAR VA METODLAR: Kompetentlik va kompetensiya kategoriyalarining tuzilmasini o'rganish jarayonida bir nechta yo'nalishlarni ajratib ko'rsatish mumkin. Ko'pgina mualliflar faoliyatli yondashuvni istiqbolli deb baholaydilar, shuningdek ular kompetentlikni kasbiy faoliyatda namoyon bo'ladi va shu bilan bir qatorda uning asosi ham, deb hisoblaydilar. Bunday holatda kompetentlik jarayonning aniq doirasida samarali harakatni yuzaga keltirish uchun zarur bo'lgan ichki resurslar tizimi sifatida tushuniladi.

XULOSA: O'rganilgan empirik natijalar asosida qo'riqlash xizmati xodimlarining ijtimoiy-psixologik kompetentligiga ta'sir etuvchi psixologik omillar (ish tajribasiga qarab) turli ko'rinishda bo'lishi mumkinligi kuzatildi. Ushbu omillarni aniqlash asosida qo'riqlash xizmati xodimlarining ijtimoiy-psixologik kompetentligini oshirishdagi mavjud bo'lgan muammolarni bartaraf etish bo'yicha muayyan darajadagi psixologik tahlillar olib boriladi va shu tahlil natijalari asosida ularga psixologik xizmat ko'rsatishning keyingi vazifalarini aniqlab beradi.

Kalit soʻzlar: kompetentlik, xodim ijtimoiy-psixologik kompetentligi, kasbiy kompetentlik, kompetentlik, kasbiy faoliyat, kasbiy bilim, koʻnikma va malakalar, kasbiy psixologik xususiyatlar

ХАРАКТЕРИСТИКА ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ СОТРУДНИКОВ СЛУЖБ БЕЗОПАСНОСТИ

Махмудова Зульфия Мехмоновна.

Доцент, Бухарский государственный университет, г. Бухара

Аннотация.

ВВЕДЕНИЕ: В данной статье рассматривается исследование проявления и развития факторов социально-психологической и коммуникативной компетентности сотрудников служб безопасности и совершенствование ее специфических социально-психологических факторов, а также социально-психологических факторов и компонентов, развивающих социально-психологическую компетентность. раскрыты механизмы выявления коммуникативной компетентности работника.

ЦЕЛЬ: Совершенно новые задачи морального и духовного обеспечения всех сотрудников и военнослужащих, проходящих службу в системе службы безопасности, а также повышения общего кругозора, морального и интеллектуального потенциала сотрудников, привития им патриотизма, гордости, верности своей профессии и Он заключается в разработке рекомендаций по результатам исследования по повышению чувства высокой ответственности.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: В процессе изучения структуры компетентности и категорий компетентности можно выделить несколько направлений. Многие авторы оценивают функциональный подход как перспективный, а также считают, что компетентность проявляется в профессиональной деятельности и одновременно является ее основой. В данном случае под компетентностью понимают систему трудовых ресурсов, необходимых для создания эффективного действия в конкретных рамках процесса.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: На основании изученных эмпирических результатов отмечено, что психологические факторы, влияющие на социально-психологическую компетентность сотрудников служб безопасности (в зависимости от стажа работы), могут быть различными. На основе выявления этих факторов будет проведен определенный уровень психологических анализов для устранения существующих проблем в повышении социально-психологической компетентности сотрудников служб безопасности и на основе результатов этого анализа будут определены следующие задачи оказания психологических услуг. им будет определено.

Ключевые слова: компетентность, социально-психологическая компетентность работника, профессиональная компетентность, компетентность, профессиональная деятельность, профессиональные знания, умения и компетенции, профессиональные психологические характеристики.

CHARACTERISTICS OF PROFESSIONAL COMPETENCE OF SECURITY SERVICE PERSONNEL

Makhmudova Zulfiya Mekhmonovna

Associate Professor, Bukhara State University, Bukhara city

Annotation.

INTRODUCTION: This article discusses the research of the manifestation and development of the factors of socio-psychological and communicative competence of security service employees and the improvement of its specific socio-psychological factors, and the socio-psychological factors and components that develop the socio-psychological competence and communicative competence of the employee. detection mechanisms are disclosed.

THE GOAL: completely new tasks of moral and spiritual support of all employees and military personnel serving in the security service system, as well as raising the general outlook, moral and intellectual potential of employees, instilling in them patriotism, pride, pride, loyalty to their profession and It consists in developing a recommendation based on the results of the research on increasing the sense of high responsibility.

MATERIALS AND METHODS: In the process of studying the structure of competence and competence categories, several directions can be distinguished. Many authors evaluate the functional approach as promising, and they also believe that competence is manifested in professional activity, and at the same time, it is also its basis. In this case, competence is understood as a system of work resources necessary to create effective action within the specific framework of the process.

CONCLUSION: Based on the studied empirical results, it was observed that the psychological factors affecting the socio-psychological competence of security service employees (depending on the work experience) can be different. Based on the identification of these factors, a certain level of psychological analyzes will be conducted to eliminate the existing problems in increasing the social and psychological competence of security service personnel, and based on the results of this analysis, the next tasks of providing psychological services to them will be determined.

Key words: competence, social-psychological competence of an employee, professional competence, competence, professional activity, professional knowledge, skills and competencies, professional psychological characteristics.

Kompetentlik va kompetensiya kategoriyalarining tuzilmasini o'rganish jarayonida bir nechta yo'nalishlarni ajratib ko'rsatish mumkin. Ko'pgina mualliflar faoliyatli yondashuvni istiqbolli deb baholaydilar, shuningdek ular kompetentlikni kasbiy faoliyatda namoyon bo'ladi va shu bilan bir qatorda uning asosi ham, deb hisoblaydilar. Bunday holatda kompetentlik jarayonning aniq doirasida samarali harakatni yuzaga keltirish uchun zarur bo'lgan ichki resurslar tizimi sifatida tushuniladi. Kompetentlik tuzilmasi quyidagi komponentlarga ajratiladi: yo'naltiruvchi va ijrochi, mazmunli (bilim) va jarayonli (ko'nikma), kognitiv va operatsional.

Ijtimoiy-psixologik kompetentlik muammosining umumiy jihatlarini G.M.Andreyeva, Ye.A.Abulxanova-Slavskaya, V.P.Bederxanova, A.A.Bodalev, M.Kyarest, V.A.Labunskaya, A.N.Leontev, A.K.Markova, D.Mayers, Ye.S.Mixaylova, A.V.Petrovskiy, S.L.Rubinshteyn, A.V.Xutorskiy, A.J.Yujaninova kabi olimlar tomonidan tadqiq etilgan.

A.K.Markova ijtimoiy kompetentlikni mazmun jihatdan tahlil qilib, uning jarayonli va natijali tomonlarini ajratib ko'rsatgan. Muallif kompetentlik tuzilmasini jarayon (pedagogik faoliyat, pedagogik muloqot, o'qituvchi shaxsi) va pedagogik faoliyat natijalari, ya'ni ta'lim oluvchining ta'lim olganlik va tarbiyalanganlik nuqtai nazaridan tizimlashtirilgan.

Chunonchi, mehnat faoliyatining barcha jihatlarini uchun psixologik modul deb nomlanuvchi kasbiy bilim, ko'nikma va malakalar, kasbiy psixologik xususiyatlar ishtirok etadi. Shuningdek, kompetentlik tuzilmasi faoliyatning ichki vositasi, ya'ni motiv, bilim, ko'nikma va malaka kabi elementlarni qarab chiqish uning jarayonli va natijali ko'rsatkichlarini hisobga olish haqidagi tasavvur paydo bo'ladi.

A.V.Xutorskiyning o'tkazgan ilmiy izlanishlarida, kompetentlik – o'ziga xos individual-psixologik xususiyat sifatida namoyon bo'lishi, kompetensiya esa insonning aniq bir muhitda samarali va sifatli faoliyati uchun zarur bo'lgan tayyorgarlikka qo'yilgan va oldindan belgilangan ijtimoiy talablardan iboratligini ta'kidlaydi.

Psixologik kompetentlik tuzilmasida J.G.Garanina quyidagi ikkita darajaning mohiyatini bilim, ko'nikma, malaka va fikrlash asosida talqin qiladi:

1) kategoriyalar, hissiy-emotsional obrazlar, ijtimoiy etalonlar, stereotiplar va boshqalar, hamda fikrlash tizimlari (ijtimoiy muammolarni hal etish bo'yicha refleksiv aqliy faoliyat);

2) amaliy, ijrochilik, ya'ni insonlar bilan o'zaro ta'sir o'tkazish malaka va ko'nikmalar tizimi. Yuqoridagi ikkala yo'nalish kompetentlikning refleksiv va progressiv xususiyatlarini ochib berishga xizmat qiladi.

Bizning fikrimizcha, agar shu ikki daraja bo'lmaganida edi kompetentlik tushunchasining mohiyati u qadar to'laqonli hisoblanmasdi.

O.A.Bulavenkoning ta'kidlashicha, kompetentlikni kasbiy faoliyatning o'ziga xos chizgisi sifatida emas, balki shaxsning turg'un oshirilgan yoki pasaytirilgan faollikda namoyon bo'luvchi holati sifatida qarash kerakligini taklif etadi.

Fikrimizcha, kompetentlik faqat faol kasbiy faoliyatda namoyon bo'ladi, faoliyatda qanaqadir turg'unlik bo'lishi uni muvaffaqiyatga erishishida to'siq bo'lishi mumkin.

I.A.Zimnaya kompetentlikni yo'naltirilganlik, maqsadni qo'ya bilish, xulqning hissiy-irodaviy boshqarilishi, qadriyatli-mazmunli munosabatlarni o'z ichiga olgan shaxs xususiyatlari sifatida qaraydi. Uning fikricha, kompetentlik tuzilishi quyidagi komponentlar tizimidan iborat:

a) shaxsning ichki psixik, tashqi xulqiy harakatida ushbu xususiyatlarni namoyon qilishga tayyorlik;

b) muvaffaqiyatga erishish uchun vazifalarni bajarishning vositasi, metodlari va dasturlarini anglash, ijtimoiy va kasbiy masalalarni yecha olish, tartib-intizom talablari va o'ziga xos bo'lgan me'yorlariga rioya qilish. Bu kompetensiyaning asosiy mazmun-mohiyatini quyidagicha mazmunda ochib beradi;

c) bilimlarni amaliyotda qo'llay olish tajribasi, ya'ni ko'nikma va malaka;

d) hissiy-irodaviy regulyatsiya, kompetentlikni namoyon qila olish qobiliyati, uning ijtimoiy va kasbiy o'zaro ta'sir holatlariga bog'liq holda namoyon bo'lishini muvofiqlashtirish sifatida.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, kompetensiya tarkibida ijtimoiy-psixologik va kasbiy kompetentlikning namoyon bo'lish holatlarida o'zini-o'zi nazorat qilish, shaxsiy va kasbiy imkoniyatini namoyon qilish qobiliyatini aks ettiruvchi o'ziga xos belgilarni ajratish zarur. Sud psixologik ekspertizasi jarayonida o'z bilim, ko'nikma va malakalarni samarali qo'llash sud psixolog xodimidan o'zini-o'zi idora qilish va o'zini-o'zi boshqarishning psixologik mexanizmlarining shakllanishini talab qiladi.

Pedagog A.A.Dunyushin shaxsning ijtimoiy-psixologik kompetentligi kasbiy faoliyatda insonlar bilan o'zaro munosabatda bo'lishi uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarni amalda qo'llay olish qobiliyati ekanligini ta'kidlaydi. Ko'rinib turibdiki, fikr muallifi quyidagi bir necha mulohazalar orqali aniqlashtirilgan:

a) kompetentlik aniq bir faoliyat sub'ekti tavsifi sifatida baholanishi mumkin;

b) kompetentlikning mazmuni kasbiy faoliyat maqsadi, tuzilishi va maxsus talablariga bog'liq;

c) kompetentlik hissiy-irodaviy sifatlar, shaxsning muloqotmandligi, intellektual salohiyati, shaxsning yo'naltirilganligi kompetentlikka asos bo'lib xizmat qiladi.

Demak, yuqoridagi tahlillarga tayangan holda, sud psixolog xodimlarining kommunikativ kompetentligiga aloqador bo'lgan jihatlarni rivojlantirish dolzarb vazifalardan biri ekanligi, sud psixolog xodimlari kasbiy faoliyatining turli tomonlarini tadqiq etishni hozirgi zamon talabi sifatida tushunish lozim.

A.V.Raysev tamonidan kompetentlik tushunchasining mohiyatida quyidagi bosqichlar keltirilgan: intellektual, amaliy, qadriyatli-mo'ljalli va nutqli. Shundagina mutaxassis kompetentligi har doim faoliyat turiga bog'liq bo'lgan aniq holatda namoyon bo'ladi.

L.G.Semushina asarlarida talqin qilishicha, malaka past, o'rtacha va yuqori darajada bo'lganligi tufayli mutaxassis tomonidan biror bir kasb yoki

mutaxassislikning egallaganlik darajasini beligab beradi, deb ta'kidlaydi. Olim bu yerda malakani kompetentlik tushunchasiga yaqinlashtirishga uringan.

N.S.Aulova olib borilgan nazariy tahlillarga asoslanib shuni aytish mumkinki, mutaxassislarni faoliyatga tayyorlashda ijtimoiy kompetentlikning quyidagi mezonlarini asos qilish kerakligini ko'rsatadi:

- shaxs refleksiv faolligi darajasi – hamkasblarga munosabat, shaxsiy ahamiyatli kasbiy sifatlarda ifodalangan ideal mutaxassis obrazini tanlash, o'z kasbiga mosligini baholash, refleksiv (o'z tushunchasi va hatti-harakatlarni anglash) harakatlarning shakllanganligi;

- asosiy texnologik tayyorgarlik sifatida mazmunli-jarayonli, operatsional komponentning shakllanganlik darajasini, kasbiy faoliyatning vositalari, metodlari va yo'llarini egallash;

- bilish faollik darajasining o'zlashtirilgan kasbiy bilimlar tizimi, kasbiy masalalarni hal etish usullarini qo'llash ko'nikmasi;

- kasbning yuqori ijtimoiy belgilanganligida ishonchning shakllanganligi darajasi;

- samarali kasbiy faoliyat ko'nikmalarini o'zlashtirish zaruriyatining ahamiyatini anglash;

- ularni o'z kasbiy faoliyatida amalga oshirish yo'llarini topishga intilish;

- anglashning faollik darajasi.

Bizningcha, muallifning mazkur ta'rifida o'ziga xos ijtimoiy-psixologik omillar tizimiga alohida e'tibor qaratadi.

Bugungi kunda jahonda ijtimoiy-psixologik kompetentlikning quyidagi asosiy jihatlariga alohida ahamiyat beriladi:

- a) ijtimoiy – o'ziga mas'uliyatni his etish, hamkorlikda qarorlar qabul qilish va unda faol ishtirok etish qobiliyati, turli etnik madaniyat va dinlarga tolerantlik, shaxsiy qiziqishning jamiyat talablari bilan mosligi;

- b) kommunikativ – turli tillardagi yozma va og'zaki tarzda muloqot qila olish qobiliyatiga egalik;

- c) ommaviy axborot vositalari orqali tarqatilayotgan ijtimoiy axborotga tanqidiy munosabat;

- d) kognitiv – doimiy ravishda ta'lim olish darajasini oshirishga intilish, o'zining imkoniyatini faollashtirish va amalga oshirishga bo'lgan ehtiyoj, ya'ni bilim va ko'nikmalarni mustaqil egallash, o'zini-o'zi rivojlantirish qobiliyati;

- e) madaniyatlararo kompetensiyalar;

- f) mustaqil bilish faoliyati sohasidagi kompetentlik;

- j) maxsus – kasbiy amallarni mustaqil bajarishga tayyorgarlik, o'z mehnati natijalarini baholash.

Yuqorida qayd etilgan ishlarda kompetentlik mezonlari umumilmiy, ijtimoiy, siyosiy-huquqiy va umumkasbiy bilimlar asosida talqin etilishi alohida ahamiyat kasb etadi. Ta'kidlash kerakki, kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarni ijtimoiy-psixologik kompetentlik omili sifatida talqin qilish an'anasi ham mavjud.

Jumladan, psixologiya fanining fundamental asoslarini ochib bergan olimlardan E.F.Zeer va G.M.Romansevlarning metodologik xizmati shundaki, malaka insonning ijtimoiy va kasbiy qobiliyatlariga qo'yiladigan ijtimoiy va kasbiy malakaviy talablar majmuasi ekanligini isbotlab berishganligidadir.

Shunday qilib, malaka ham kompetentlik kabi asosiy va kasbiy bo'lishi, shu bilan birga, kasbiy malakalarni ko'pincha oddiy malakalar deb nomlash ham mumkin. Ilmiy adabiyotlarda asosiy malakalar sifatida quyidagilar kiritiladi:

- shaxsning kasbiy tayyorgarligi darajasidan tashqaridagi uning ekstrofunksional bilimi, ko'nikmalari, individual xususiyalari;
- aniq kasblar guruhlari sohasidagi ishni bajarish uchun zarur bo'ladigan shaxsning umumkasbiy bilimlari, ko'nikmalari va malakalari, shuningdek, qobiliyatlari va sifatleri;
- turli jamoalarga moslashish va ularda samarali faoliyat uchun zarur madaniyatlararo va sohalararo bilimlar, ko'nikmalar, malakalar va qobiliyatlar.

Qo'riqlash xizmati xodimlari kasbiy kompetentligini rivojlantirishda kommunikativ kompetentlik bilan o'zaro proporsionallikda takomillashtirishga qaratilgan psixotexnikalarni qo'llash orqali yuqori samaradorlikka erishilganligini ko'rishimiz mumkin.

1-jadval

Qo'riqlash xizmati xodimlari emotsional intellektining qiyosiy ko'rsatkichlari tahlili (N.Xoll usuli bo'yicha)

Omillar	sutkalik naryad asosidagi xodimlar				vaxta usulidagi naryad asosidagi xodimlar			
	Aniqlovchi tajriba		Nazorat tajriba		Aniqlovchi tajriba		Nazorat tajriba	
	M1	S	M2	S	M1	S	M2	S
Emotsional bilimdonlik	9,02	2,13	13,68	1,99	10,26	2,01	15,38	1,38
O'z emotsiyasini boshqarish	8,03	1,23	15,49	2,13	11,72	1,13	16,25	1,36
O'zini-o'zi rag'batlantirish	9,03	1,41	15,73	1,53	11,84	1,33	15,80	1,51
Empatiya	9,12	1,52	15,54	1,94	11,02	2,01	16,46	1,18
O'zga insonlarning kechinmalarini sezish	7,33	2,43	15,87	2,21	11,87	2,12	16,67	0,68

Izoh: M – o'rtacha qiymat. S – standart xatolik

Yuqoridagi jadvallardan ko'rinib turibdiki, trening dasturi qo'llanilgandan keyin sutkalik naryad asosidagi xodimlarning emotsional intellektining umumiy natijalari shuni ko'rsatadiki, o'rtacha ko'rsatkich emotsional bilimdonlik 4,66, o'z emotsiyasini boshqarish 7,46, o'zini-o'zi rag'batlantirish 6,70, empatiya 6,42, o'zga insonlarning kechinmalarini sezish 8,54 ball doirasida o'shishga erishilganligini ko'rishimiz mumkin.

Vaxta usulidagi naryad asosidagi xodimlar emotsional intellektning umumiy ko'rsatkichlarini tahlil qilar ekanmiz, emotsional bilimdonlik 5,12, empatiya 5,44, o'zga insonlarning kechinmalarini sezish 4,80, o'z emotsiyasini boshqarish 4,53, o'zini-o'zi rag'batlantirish 3,96 ball yuqorilaganligi faoliyat jarayonida hamkasblari va fuqarolar bilan muloqotda samarali natijaga erishish imkonini berishi bilan ahamiyat kasb etib, emotsional kechinma chegaralari, emotsional intellektning ikki tomoni, ya'ni o'zining emotsiyalarini tushunish uchun intellektual boshqaruvga yoki aksincha kasbiy faoliyat jarayonida ijodiy impulsar va intuitsiyalarni ta'minlashda emotsiyaga zarurat borligini anglash, muloqot qilinayotgan shaxs emotsiyasining vazifalari to'g'risidagi bilimlarga, faoliyat jarayonida emotsional barqarorlik va beqarorlik, salbiy emotsional holatlar, xususan: affekt, stress, frustratsiya, depressiya va ulardan chiqish yo'llarini izlash to'g'risidagi psixologik tomonlari va hayotiy tajribadan yetarli darajada boxabar ekanligidan dalolat beradi.

Trening mashg'ulotlari o'tkazilgandan so'ng barcha kompetentlik omillari bo'yicha o'sish kuzatilganligini ko'rishimiz mumkin. Jumladan, uch yilgacha ish tajribasiga ega bo'lgan xodimlarda sotsial-perseptiv kompetentlik omili 4,8, kommunikativ kompetentlik 5,8, kognitiv kompetentlik 5,1, individual psixologik kompetentlik esa 4,1 balga ko'tarilganligini ko'rishimiz mumkin. Uch yildan ortiq ish tajribasiga ega bo'lgan xodimlarda ham ko'rsatkichlarning yuqori darajasi kuzatildi: sotsial-perseptiv kompetentlik omili bo'yicha 5,1, kommunikativ kompetentlik 4,8, kognitiv kompetentlik 4,2, individual psixologik kompetentlik esa 5,2 ball yuqoriladi. Sotsial-perseptiv kompetentlik omili bo'yicha yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan respondentlarda muloqot jarayonida ijtimoiy persepsiya mexanizmlari, ya'ni refleksiya, identifikatsiya, empatiya muvaffaqiyatli darajada ishlashidan dalolat beradi. Ular o'z suhbatdoshlarini har qanday holatda ham tushunib, emotsional qo'llab-quvvatlashlarini anglatadi. Xodimlar kasbiy faoliyatida sotsial-perseptiv kompetentlik kasbdoshlari, rahbariyat va fuqarolar bilan ishlashda muhim ahamiyatga ega. Shu boisdan, kasbiy kompetentligi yuqori bo'lgan xodimlarda mazkur omilni yuqori darajada namoyon bo'lishi maqsadga muvofiqdir.

2-jadval

Qo'riqlash xizmati xodimlarida kasbiy kompetentlik omillarining namoyon etilishi va rivojlanganlik darajalari (IPS natijalari asosida)

№	Omillar	sutkalik naryad asosidagi xodimlar			vaxta usulidagi naryad asosidagi xodimlar		
		M1	M2	S	M1	M2	S
1	Sotsial-perseptiv kompetentlik	15,4	20,2	1,37	17,7	22,8	1,09
2	Kommunikativ kompetentlik	13,8	19,6	1,52	16,9	21,7	1,75
3	Kognitiv kompetentlik	16	21,1	1,23	18,6	22,8	1,05
4	Individual psixologik kompetentlik	16,8	20,9	2,02	18,4	23,6	1,02

Izoh: M – o'rtacha qiymat. S – standart xatolik

Kommunikativ kompetentlik bo'yicha yuqori natijalarning qayd etilishi, xodimlarda muloqotda so'zning motivatsion funksiyasidan samarali foydalanish, ma'lumotlarni aniq, tizimli bayon qilish, nutqning ta'sirchanligini oshirish uchun paralingvistik ta'sir vositalarini qo'llash ko'nikmasining ustuvor ekanligini ko'rsatadi. Xodimlardagi muloqot auditoriyasining rang-barangligi axborotni qabul qilish va uzatish jarayonida paralingvistik, ekstrolingvistik ta'sir mexanizmlaridan samarali foydalanishni talab etadi.

Ijtimoiy-psixologik kompetentlik omillaridan navbatdagisi kognitiv kompetentlikdir. Aslida kognitiv kompetentlikning yuqori darajada namoyon bo'lishi xodimlarda kasbiy ma'lumotlarni to'plash, mantiqiy operatsiyalar yordamida qayta ishlash, ijodiy tafakkur doirasida uning ahamiyatlilik darajasini baholash hamda tahlil qilish, kasbiy funksional vazifalarni bajarishda tezkor qaror qabul qilish hamda vaqtni rasional taqsimlash xususiyatining ustuvorligini anglatadi. Umuman olganda mazkur omil bo'yicha aniqlangan holat kognitiv kompetentlik omilini namoyon bo'lishida xodimlarda kasbiy faoliyat bilan bog'liq vaziyatli to'siqlarni yengib o'tish ko'nikmasining rivojlanganlik darajasini ijtimoiy ish tajribasiga bog'liq ravishda namoyon bo'lishi muhim ahamiyatga ega ekanligi kuzatilmoqda.

Autopsixologik kompetentlik omili bo'yicha yuqori natijaga ega bo'lgan xodimlarda o'z hatti-harakatlarini to'g'ri boshqara olish, o'z shaxsiy xususiyatlarini adekvat baholay olish, o'zini-o'zi tartibga solish qobiliyati yaqqol ko'zga tashlanmoqda. Xodimlarning doimiy o'z ustida ishlab, atrofdagilarning ayniqsa, fuqarolar hamda hamkasblarining ijtimoiy kutuvlariga o'zlarini moslashtirib, o'z-o'zlarini nazorat qilishlari, o'z-o'zlarini kuzatishlari, tahlil qilishlari asosida o'z-o'zlarini anglashlari muhim kasbiy-professional xususiyatlaridan biri hisoblanadi. Demak, o'rganilgan empirik natijalar asosida qo'riqlash xizmati xodimlarining ijtimoiy-psixologik kompetentligiga ta'sir etuvchi psixologik omillar (ish tajribasiga qarab) turli ko'rinishda bo'lishi mumkinligi kuzatildi. Ushbu omillarni aniqlash asosida qo'riqlash xizmati xodimlarining ijtimoiy-psixologik kompetentligini oshirishdagi mavjud bo'lgan muammolarni bartaraf etish bo'yicha muayyan darajadagi psixologik tahlillar olib boriladi va shu tahlil natijalari asosida ularga psixologik xizmat ko'rsatishning keyingi vazifalarini aniqlab beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Maxmudova Z.M., Olimov L.Ya. O'smirlarda ekstremal vaziyatlarda psixologik himoya mexanizmlarini shakllantirish. Monografiya. "Buxoro viloyat bosmaxonasi MChJ" nashriyoti. Buxoro. 2021. -B. 160.
2. Maxmudova Z.M., Olimov L.Ya. Psychodiagnostics. O'quv qo'llanma. "Turon zamin ziyo" nashriyoti. Toshkent 2014. -B. 298.
3. Olimov L.Ya. Psixodiagnostika va psixometrika asoslari. Darslik. "Durdona" nashriyoti. Buxoro. 2021. -B. 747.
4. Olimov L.Ya. Umumiy psixodiagnostika. "Durdona" nashriyoti. Buxoro. 2020. -B. 1103.

5. Olimov L.Ya., Maxmudova Z.M.. Psixodiagnostika va eksperimental psixologiya. o'quv qo'llanma. "Turon zamin ziyo" nashriyoti. T. 2020. -B. 820.
6. Olimov L.Ya., Nazarov A.M. Xulqi o'gishgan bolalar psixologiyasi. O'quv qo'llanma. "Tafakkur avlodi" nashriyoti. Buxoro. 2020. -B. 490.
7. Olimov L.Ya., Bahronova M.O'.O'smirlar ma'naviyatini shakllantirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari. Science and education. Scientific journal. Volume 3, issue 3. March 2022 407-413 p.

MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

Maxmudova Zulfiya Mexmonovna

Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Manzil: O'zbekiston, 200100, Buxoro shahri

azizbekyarasev@mail.ru

ORCID: 0000-0001-9437-9741